



UDK: 101.1:316.75:124.5

**Davron KAMILOV,**  
*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti*  
E-mail: [davrvkamil02@gmail.com](mailto:davrvkamil02@gmail.com)

*Falsafa doktori PhD U.Mengliqulov taqrizi asosida*

### FALSAFIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASIDA BILIM, MAFKURA VA QADRIYATLAR SINKRETIZMI

Аннотация

Ushbu maqolada inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi bilim, mafkura va qadriyatlarining o'zaro ta'sir mexanizmlari falsafiy tahlil qilingan. Muallif sinkretlashuv hodisasini nafaqat nazariy kategoriya, balki falsafiy tafakkur transformatsiyasini ta'minlovchi metodologik mexanizm sifatida tadqiq etadi. Shuningdek, mazkur maqolada sinkretizmning dialektik va sinergetik tabiati jamiyat ma'naviy evolyutsiyasining obyektiv zarurati ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Sinkretizm, falsafiy tafakkur, transformatsiya, mafkura, kalokagatiya, logos, qadriyat, bilim, paradigm, evolyutsiya, internallashuv, integratsiya, dialektika, sinergetika.

### СИНКРЕТИЗМ ЗНАНИЙ, ИДЕОЛОГИИ И ЦЕННОСТЕЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ФИЛОСОФСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье представлен философский анализ механизмов взаимодействия новых знаний, идеологии и ценностей в процессе развития человеческого мышления и общества. Автор исследует феномен синкретизма не только как теоретическую категорию, но и как методологический механизм, обеспечивающий трансформацию философского мышления. Также обосновывается диалектическая и синергетическая природа синкретизма как объективной необходимости духовной эволюции общества.

**Ключевые слова:** Синкретизм, философское мышление, трансформация, идеология, калокатия, логос, ценность, знание, парадигма, эволюция, интернализация, интеграция, диалектика, синергетика.

### SYNCRETISM OF KNOWLEDGE, IDEOLOGY, AND VALUES IN THE TRANSFORMATION OF PHILOSOPHICAL THOUGHT

Annotation

This article provides a philosophical analysis of the mechanisms of interaction between new knowledge, ideology, and values in the process of human thought and social progress. The author examines the phenomenon of syncretism not only as a theoretical category but also as a methodological mechanism that facilitates the transformation of philosophical thought. Furthermore, the article substantiates the dialectical and synergetic nature of syncretism as an objective necessity for the spiritual evolution of society.

**Key words:** Syncretism, philosophical thought, transformation, ideology, kalokagathia, logos, value, knowledge, paradigm, evolution, internalization, integration, dialectics, synergetics.

**Kirish.** Bashariyat tarixida yangi bilimlar, mafkura va qadriyatlar doimo inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch bo'lib xizmat qilgan. Davrlar almashinuvini ta'minlovchi bunday voqeliklar falsafiy tafakkurning tadrijiy boyib borishi va rivojlanishini ta'minlagan. Ushbu jarayonda ilg'or g'oyalar, muqobil mafkuralar va turli qadriyatlar o'zaro ta'sirga kirishib, falsafiy tafakkurning sinkretik shakllanishini va umumiy taraqqiyot mexanizmiga aylanishini ta'minlagan.

Sinkretlashuv hodisasi hozirgi davrda faqatgina nazariy kategoriya sifatida emas, balki fan, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi amaliy jarayon sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bizning fikrimizcha, ilmiy-innovatsion yutuqlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirsa, mafkura uning yo'nalishini belgilaydi, qadriyatlar esa uning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi. Ammo mazkur omillardan qaysi biri jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanini borasida turli qarashlar mavjud. Aynan shu nuqtai nazardan sinkretlashuv hodisasi rivojlanish strategiyasini va uning o'ziga xos "yadrosi"ni belgilab beruvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sinkretizm tushunchasining falsafiy va metodologik asoslarini tadqiq etish maqsadida maqolada gnoseologiya, aksiologiya va ijtimoiy falsafaga oid fundamental asarlarga murojaat qilingan. Xususan, Q.Nazarov [6] "mafkura" tushunchasiga ta'rif berar ekan, uning muayyan ijtimoiy qatlam manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi ekanini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv mafkurani nafaqat nazariya, balki ijtimoiy borliq bilan sinkret bog'langan amaliy mexanizm sifatida baholashga xizmat qiladi.

Falsafiy adabiyotlarda sinkretizm tushunchasi ko'p hollarda diniy va madaniy jarayonlar bilan bog'lab tushuntirilsa-da, uning ilmiy paradigma transformatsiyasidagi roli Tomas Kun [2] asarida o'ziga xos tarzda tahlil qilingan. Kun ilmiy inqiloblar jarayonida eski va yangi qadriyatlarining o'zaro kurashi va sinkretlashuvini "paradigma almashinuvi" sifatida baholaydi. Uning fikricha, Darvinning "tabiiy tanlanish" g'oyasi shunchaki ilmiy yangilik emas, balki an'anaviy kreotsionistik qadriyatlarni inqirozga uchratgan va yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirgan inqilobiy omildir.

L.Letyagin [5] o'zining "Mafkura falsafasi" asarida mafkurani jamiyat ma'naviy hayotining "tizimosti" xususiyati sifatida baholaydi va bu muammoni antik falsafadan hozirgi davrgacha bo'lgan keng qamrovli mualliflar (Platon, Gegel, Marks, Fuko va b.) kontekstida ko'rib chiqadi. Shuningdek, T.Iglton [1] mafkura tushunchasiga yagona va adekvat ta'rif berishning qiyinligini, uning ma'nolar ko'lamini nihoyatda kengligini ta'kidlab, tushunchaning epistemologik murakkabligiga e'tibor qaratadi.

G.Spenser [8] o'zining "Sintetik falsafa" asarida darvinizm, lamarkizm va pozitivizmni yagona evolutsion tamoyil asosida birlashtirishga harakat qilgan. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Spenser tizimida organik sintezdan ko'ra ko'proq sinkretik bog'lanishlar ustuvorlik qiladi. Bu esa evolutsiya borasidagi yangi bilimlarning mafkuraviy va qadriyatli tizimlar bilan qanchalik murakkab aloqadorlikda ekanini ko'rsatadi.

Qadriyatlarning shaxsiy darajada shakllanishi va internallashuv jarayoni I.Kant [4] va M.Sheler [7] asarlarida aksiologik jihatdan tahlil qilingan. Kant axloqiy qonunining sub'ektiv "amaliy aql"dan kelib chiqishini asoslasa, Sheler qadriyatlarni ichki his etish orqali ruhiy dunyoning shakllanishini ta'kidlaydi. Mazkur ta'riflarda qadriyatlarning shunchaki tashqi me'yor emas, balki shaxsning sinkretik tafakkur tizimining ajralmas qismi ekanini bayon qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada "sinkretizm" tushunchasi tarixiylik tamoyillari va umumiy aloqadorlik asosida tahlil etiladi. Ushbu yondashuv sinkretizmning antik davr "kalokagatiya"sidan tortib, zamonaviy paradigmal o'zgarishlarga bo'lgan tadrijiy yo'lini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, formal mantiq usullari asosida sinkretizmning jins va tur belgilari aniqlanadi, uning "sintez", "eklektika" va "integratsiya" kabi turdosh tushunchalar bilan o'zaro nisbati oydinlashtiriladi.

Shuningdek, sinkretizm ijtimoiy hodisa sifatida turli davrlardagi talqinlar va munosabatlar, uning muammoviy rivojlanish jarayonlari ijtimoiy germevntika va falsafiy antropologik yo'nalishda ochib berilgan. Bu esa sinkretizmni nafaqat nazariy konstruktsiya, balki insonning qadriyatlar dunyosi va ma'naviy borligini belgilovchi sub'ektiv mexanizm (internallashuv va integratsiya) sifatida baholashga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'kidlash lozimki, sinkretlashuv o'z mohiyatiga ko'ra fanlararo xususiyatga ega bo'lib, u epistemologiya, siyosatshunoslik, sotsiologiya va aksiologiya yo'nalishlarini qamrab oladi. Shu bois, turli sohalaridagi ilmiy maktablar va falsafiy ta'limotlar doirasida sinkretlashuvga farqli yondashuvlar asosida baho berilgan. Masalan, XX asr faylasuflari Moris Shlik, Rudolf Karnap epistemologiyadagi bilimning mantig'i va rivojlanishiga oid g'oyalarni ilgari surib, har qanday yangi bilim ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili ekanini, texnologiyalar yangi mafkura va qadriyatlar tizimini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar.

Evolutsiya nazariyasining asoschisi Charlz Darvinning biologik turlar evolutsiyasi haqidagi ta'limoti ijtimoiy taraqqiyotga tegishliligi tan olingan va bu nafaqat yangi bilimni yaratish metodologiyasiga munosabatning o'zgarishiga, balki mafkura va qadriyatlar transformatsiyasiga ham ta'sir etgan. Jumladan, taniqli sotsiolog G. Spenser Ch. Darvinning "Turlarning kelib chiqishi" asarida ilgari surilgan biologiyadagi "tabiiy tanlanish" konsepsiyasini o'zining "moslashuvchanlarning omon qolishi" g'oyasi bilan to'ldirgan. Uning fikricha, "tabiatga falsafiy nazar tashlagan aksariyat kishilarga ma'lumki, 'yomonlar'ning halokati va 'yaxshilar'ning ko'payishi atrof-muhit bilan uyg'un konstitutsiyani saqlab turishga xizmat qiladi. Agar xasta va zaiflar muntazam tirik qolib, ko'payganida edi, har qanday irqning o'rtacha salohiyati

pasaygan bo'lar edi. Shu sababli hayot shartlarini bajara olmagan zaif va kasallar yo'qolishi, aksincha uning shartlarini bajara oladiganlarning omon qolishi natijasida, hayotga moslikning o'rtacha darajasi saqlanib qoladi – bu deyarli o'z-o'zidan ravshan haqiqatdir" [3].

Ushbu g'oyaning ommalashuvi Ch. Darvin nazariyasining faqat biologik konsepsiya emas, balki siyosiy-iqtisodiy sohalaridagi raqobat va kurashni ifodalovchi "ijtimoiy darvinizm" mafkurasiga aylanishiga zamin yaratdi. Mazkur mafkura 1870-yillardan boshlab Angliya va AQSHda keng tarqaldi, biroq Ikkinchi jahon urushi davridagi insoniyatga qarshi sodir etilgan vahshiyliklar oqibatida uning nufuzi keskin pasaydi. Shunga qaramay, ijtimoiy darvinizm ba'zi doiralarda kapitalistik qadriyatlarni (individualizm, raqobat, mulkchilik) himoya qilish uchun qo'llanilgan bo'lsa, boshqalar tomonidan irqchilik, mustamlakachilik va fashizmni oqlovchi mafkura sifatida keskin tanqid qilingan.

Bizning fikrimizcha, Ch. Darvinning evolutsiya nazariyasi G. Spenserning tabiiy-ilmiy va epistemologik qarashlari doirasida evolutsiya borasidagi yangi bilimlarning shakllanishiga ta'sir etgan va bu jarayon o'sha davrdagi mafkuraviy qarashlar va qadriyatlar tizimining qayta anglanishini taqozo etgan. Boshqa tomondan, G. Spenser o'z nazariyasini turli bilim sohalarini evolutsiya tamoyillari asosida mantiqan bog'langan yaxlit tizim sifatida birlashtirishga harakat qilgan. Shu sababli u o'zining darvinizm, lamarkizm va pozitivizm negizida shakllangan falsafiy konsepsiyasini "Sintetik falsafa"[8] deb nomlagan.

XX asrning mashhur faylasuflaridan biri Tomas Kun esa "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asarida Ch. Darvinning 1859-yilda e'lon qilgan evolutsiya nazariyasi ilmiy qadriyatlar tizimiga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilgan. Kunning ta'kidlashicha, ilmiy jamoatchilikni odamzotning maymundan kelib chiqqani yoki turlarning o'zgaruvchanligi emas, balki Darvinning "tabiiy tanlanish" haqidagi inqilobiy g'oyasi ko'proq xavotirga solgan. Mazkur yondashuv evolutsiyani oldindan belgilangan maqsadsiz, muayyan yo'nalishsiz va faqat tasodifiy variatsiyalar asosida kechadigan jarayon sifatida talqin qilgani bois, fanda katta bahslarga sabab bo'lgan yangi paradigmani yuzaga keltirdi [2].

T. Kunning fikricha: "Darvinning ushbu nazariyasi aksariyat olimlarni o'ylanishga majbur etgan. Organizmlar o'rtasidagi hayotiy raqobat jarayonida vujudga keluvchi 'tabiiy tanlanish' mexanizmi inson kabi g'oyat murakkab tuzilishga ega mavjudotlarni va yuqori darajada rivojlangan boshqa turlarni yaratishi mumkinligi ular uchun tushunarsiz va xavotirli bo'lib ko'ringan" [2]. Shuningdek, T. Kun evolutsiya nazariyasi tanqid qilingan bo'lsa-da, fan qadriyatlarini tubdan o'zgartira olganini, natijada an'anaviy kreatsioonizm o'rnini empirik dalillar va kuzatishga asoslangan tabiiy evolutsiya ta'limoti egallaganini ta'kidlagan.

T. Kun yangi bilim, mafkura va qadriyatlarining o'zaro ta'sir zanjiri haqida bevosita to'xtalmagan bo'lsa-da, uning paradigmal o'zgarishlar borasidagi qarashlari ilmiy yangiliklarning qadriyatlar tizimiga ta'sirini naqadar muhim deb baholaganidan dalolat beradi.

Bizning fikrimizcha, yangi g'oyalarni mutloqlashtirish hamda ularni ijtimoiy taraqqiyotning yagona determinanti sifatida talqin etuvchi idealistik qarashlarni konseptual jihatdan asosli deb baholash qiyin. Ayni paytda g'oyalar ta'sirini ikkinchi darajali omil sifatida talqin etish ham tarixiy jarayonlarning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Tarixiy tajribalar shundan dalolat beradiki, g'oya va bilimlar moddiy hayot shartlari bilan uzviy aloqadorlikda va sinkret uyg'unlikda namoyon bo'lgandagina jamiyat taraqqiyotida yetakchi kuchga aylanadi. Bu jarayon dialektik qonuniyatlar asosida shakllanib,

nazariy va amaliy qarama-qarshiliklar birligi hamda ularning o'zaro ta'siri orqali yangi mazmun bilan boyib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, diniy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va falsafiy mafkuralar insoniyat sivilizatsiyasi transformatsiyasining muhim determinanti sifatida namoyon bo'lgan. Shu bois ayrim mutafakkirlar mafkurani jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatuvchi, yangi bilimlar tizimi va qadriyatlar majmuasini bevosita shakllantiruvchi ma'naviy kuch sifatida talqin etganlar. Jumladan, L. Letyagin o'zining "Mafkura falsafasi" asarida mafkuralarni jamiyat mavjudligi va taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri deb baholar ekan, "bu muammo avval va hozir ham ma'naviy hayotning tizimosti xususiyatini anglash bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy muammolar doirasidan o'rin olgan. Buni Platon, Ma'rifat davri faylasuflari asarlari, Gegel, K. Marks, V. Lenin, Z. Freyd, K. Mangeym, M. Veber, K. Levi-Stross, K. Popper, M. Sheler, X. Arendt, F. Xayek, Yu. Xabermas, J. Derrida, M. Fuko, K. Yaspers va boshqa ko'plab mashhur mualliflarning qarashlari tasdiqlaydi" [5] deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, mafkura muammosi hozirgi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda "mafkuraning qayta tirilishi", "mafkuraviy renessans" kabi tushunchalarning paydo bo'lishi mazkur fenomenning nazariy va amaliy ahamiyati yangi paradigmal bosqichda qayta o'rganilayotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash kerakki, mafkura tushunchasining umumiy mazmunini to'liq qamrab olgan va umume'tirof etilgan ta'rif mavjud emas. Shu ma'noda, T. Igltonning bu haqda: "Hozirga qadar mafkuraga yagona va adekvat ta'rif berilmagan. Bunga tadqiqotchilar qarashlarining sayozligi emas, balki 'mafkura' tushunchasi g'oyat keng ma'nolar tizimini o'z ichiga olishi sababdir. Shu tufayli to'liq va yagona ta'rifni yaratishga urinish amalda deyarli imkonsiz" [1], – degan fikriga qo'shilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mafkuraga oid har qanday tahliliy tadqiqotda mazkur tushunchaning mazmuni va epistemologik ko'lamini aniqlash muhim nazariy-metodologik vazifa hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, tarixda mafkura jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida barcha davrlarda insonlar ongi va faoliyatini boshqarishga qaratilgan fenomen sifatida namoyon bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaragan. Postmodern davrida metanarrativlarga nisbatan ishonchsizlik kuchaygani va "yagona haqiqat" konsepsiyasining ahamiyati pasayganiga qaramay, mafkura klassik shaklini o'zgartirgan holda ijtimoiy ta'sirini saqlab qoldi. Shu nuqtai nazardan, biz Q. Nazarovning mafkuraga bergan quyidagi ta'rifini metodologik jihatdan asosli deb hisoblaymiz: "Mafkura– muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini, orzu-istak va maqsad-muddaolarini ifodalaydigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlar ifodalalayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi" [6].

Falsafiy tafakkur rivoji tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda yangi bilim va mafkura bilan bir qatorda, qadriyat ham inson ongining shakllanishida muhim ta'sir kuchiga ega bo'lganini kuzatish mumkin. Falsafa tarixining ilk bosqichlarida "qadriyat" atamasi alohida kategoriya sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, uning birlamchi elementlari qadimgi Yunonistonda "kalokagatiya" tushunchasi doirasida qo'llanilgan. Mazkur davr tafakkurida ezgulik, go'zallik va axloqiy mukammallik birligi "kalokagatiya" (kalos – go'zallik, agathos – ezgulik) deb nomlangan. Ammo keyinchalik mazkur sinkretik tushuncha Suqrot va Aflotun ta'limotlarida muayyan darajada differensialashib, undagi har bir komponent alohida ma'no va mohiyat kasb etgan.

Inson tafakkuri doimo ma'lum qadriyatlar tizimi doirasida rivojlanar ekan, har qanday bilish jarayoni ortida anglangan yoki anglanmagan holda qadriyat mezonlariga asoslanadi. Ushbu jarayonda sinkretlashuv ham o'ziga xos ta'sirga ega bo'lib, ilmiy, mafkuraviy, axloqiy g'oyalarni bir butun ma'naviy tizimda uyg'unlashtirishga yo'nalgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, qadriyatlar ta'siridagi sinkretizatsiya inson tafakkurida internallashuv va integratsiya bosqichida aks etadi.

Bizning fikrimizcha, internallashuv – bu shaxs ongida tashqi ijtimoiy qadriyatlar shaxsiy tafakkur tizimiga kirib borish jarayoni bo'lib, unda jamiyat tomonidan yaratilgan ma'naviy, axloqiy va ma'rifiy mezonlarning individual ong tizimiga singib borishi nazarda tutiladi. Psixologik va falsafiy nuqtai nazardan, bu holat insonning ijtimoiy muhit bilan bog'liq faol ongli munosabatining ifodasi bo'lib, u orqali tashqi me'yorlar shaxsiy qadriyatlar tizimiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, M. Shelerning "insondagi ruhiy dunyo qadriyatlarini ichki his etish va ularni hayot mezonini sifatida qabul qilish qobiliyati orqali shakllanadi"[7] degan fikrini asosli deb hisoblaymiz. Bu jarayonda inson jamiyatda ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarini o'z tafakkur tizimida qayta yaratib, ularni shaxsiy me'yor (maksima) sifatida qabul qiladi. Boshqa tomondan, bu holatni I. Kantning "axloqiy qonun insonga tashqi majburiyat sifatida emas, balki uning amaliy aqli, ya'ni ongning ichki manbaidan kelib chiqadi"[4] degan g'oyasi bilan ham izohlash mumkin.

Integratsiya esa inson ongida shakllangan shaxsiy qadriyatlarini jamiyatda mavjud umumiy ma'naviy va axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashtirish jarayonini anglatadi. Mazkur bosqichda shaxs faqat tashqi qadriyatlarini o'zlashtirib qolmay, ularni shaxsiy dunyoqarash tizimida qayta shakllantiradi hamda yangi ma'naviy butunlikka aylantiradi. Integratsiya natijasida inson tafakkurida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar o'zaro bog'lanadi, natijada ular biri-birini to'ldiruvchi muvozanatli ma'naviy tizimga aylanadi.

**Xulosa.** Yangi bilim, mafkura va qadriyatlarining sinkretik falsafiy tafakkurning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Sinkretizm ijtimoiy-madaniy, ilmiy va ma'naviy tizimlarning rivojlanishini ta'minlovchi faol jarayon sifatida aks etadi. U falsafiy bilishning integrativ, dialektik va ijodiy-yaratuvchanlik xususiyatlarini ifoda etib, inson ongining nazariy o'zgarishlarida hal qiluvchi metodologik mexanizm vazifasini bajaradi. Sinkretizm faqat mavjud g'oya yoki tizimlardagi betartib qorishuv emas, balki yangi bilimlar, mafkuraviy g'oyalari va ma'naviy qadriyatlarini uyg'unlashtirib, tafakkurning tarixiy va gnoseologik izchilligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, u inson tafakkurini yangilovchi va jamiyat ma'naviy evolutsiyasining harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi;

Mafkura va qadriyatlar sinkretik falsafiy tafakkurning ma'naviy asosi bo'lib, u inson ongini axborotni passiv qabul qilishdan faol yaratuvchilikka aylantiradi. Bu jarayonda g'oyalarni tanlash, tizimlashtirish va yo'nalish berishda hal qiluvchi vazifani bajaradi. Shu bois qadriyatli ong falsafiy bilishning faol shakli sifatida sinkretizm jarayonining "dastlabki poydevori"ni tashkil etadi;

Sinkretizm nafaqat bilish usuli, balki jamiyat va inson ongidagi sakrash va o'tish davrlarida yaqqol namoyon bo'luvchi dialektik holatdir. U mavjud tizimlar inqirozga uchrayotgan, yangi tizim yuzaga kelayotgan vaziyatlarda falsafiy ongning yangilanishini ifodalaydi. Bu jarayonda tasodiflarning namoyon bo'lishi unga sinergetik metodologiya xosligini ham beradi. Shu jihatdan sinkretizm ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning ontologik mohiyati va obyektiv zarurati

sifatida o‘zida ham dialektik, ham sinergetik metodologiyani namoyon etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Eagleton, T. (1991). *Ideology: An Introduction*. London; New York: Verso. – 242 p.
2. Kuhn, T. S. (2012). *The Structure of Scientific Revolutions*. 4th ed. Chicago; London: University of Chicago Press. – 264 p.
3. Spencer, H. (1910). *The Principles of Biology*. Vol. 1. New York; London: D. Appleton and Company. – 706 p.
4. Kant, I. (1993). *Kritika prakticheskogo razuma [Critique of Practical Reason]*. Moscow: Mysl. – 373 s.
5. Letyagin, L. I. (2014). *Filosofiya ideologii [Philosophy of Ideology]: Monograph*. Yekaterinburg: UrGPU. – 232 s.
6. Nazarov, Q. (2019). *Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. Toshkent: Ma’naviyat*. – 864 b.
7. Sheler, M. (1994). *Formalizm v etike i materialnaya etika tsennostey [Formalism in Ethics and Non-formal Ethics of Values]*. Moscow: Respublika. – 623 s.
8. Spenser, G. (1997). *Sinteticheskaya filosofiya Gerberta Spensera [The Synthetic Philosophy of Herbert Spencer]*. Kiev: Nika-Tsentr. – 512 s.